

**N.Sh. Mansurova**

"Ipak yo 'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti  
 Ilmiy tadqiqotlar bo 'limi boshlig'i, dotsent  
 n.sh.mansurova @gmail.com

## **BARQAROR TURIZMNI BOSHQARISHDA YUKLAMA MODELLARINING ROLI VA ULARNING AMALIY QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI**

### **Annotatsiya**

Maskur maqolada turizm industriyasining barqaror rivojlanish tamoyillari asosida boshqarilishi, uning ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy ta'sirlarini muvozanatli tarzda uyg'unlashdirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda barqaror turizmni ta'minlashda zamonaviy yondashuvlardan, xusan, "Turistik so'qmoqlar" modeli asosida sig'imlilik darajasini aniqlash, atrof-muhitga salbiy ta'sirni baholash hamda mavjud infratuzilmani samarali boshqarish yo'nalishlari ilmiy asosda o'rganilgan. Shuningdek, Hazrati Dovud ziyoratgohi misolida turizm oqimining boshqaruvi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari amaliy tahlillar asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** barqaror turizm, turizm boshqaruvi, sig'imlilik darajasi, turistik so'qmoqlar, ekologik yuklama, ijtimoiy barqarorlik, Hazrati Dovud, infratuzilma, turizm oqimi, barqaror rivojlanish.

### **Аннотация**

В данной статье рассмотрены вопросы управления туристической индустрией на основе принципов устойчивого развития, а также возможности балансирования её социального, экологического и экономического воздействия. В исследовании проанализированы современные подходы к обеспечению устойчивого туризма, в частности, модель «Туристические тропы» для определения уровня вместимости, оценки воздействия на окружающую среду и эффективного управления инфраструктурой. Кроме того, на примере святыни Хазрата Давуд научно обосновано регулирование туристических потоков, выявлены существующие проблемы и предложены пути их устранения.

**Ключевые слова:** устойчивый туризм, управление туризмом, уровень вместимости, туристические тропы, экологическая нагрузка, социальная устойчивость, Хазрати Давуд, инфраструктура, туристический поток, устойчивое развитие.

### **Abstract**

This article examines the management of the tourism industry based on the principles of sustainable development and the potential to balance its social, environmental, and economic impacts. The research analyzes modern approaches to ensuring sustainable tourism, particularly the use of the "Tourist Trails" model to determine carrying capacity, assess environmental impacts, and manage infrastructure effectively. Furthermore, using the Hazrati Dovud pilgrimage site as a case study, the study provides a scientific basis for managing tourist flows, identifies existing challenges, and proposes strategies for their resolution.

**Keywords:** sustainable tourism, tourism management, carrying capacity, tourist trails, ecological load, social sustainability, Hazrati Dovud, infrastructure, tourist flow, sustainable development.

## Kirish

Butunjahon sayyohat va turizm kengashi (World Travel & Tourism Council – WTTC) [18] turizmni dunyodagi eng yirik industriyalardan biri deb hisoblaydi, chunki ushu soha taxminan 230 million kishini ish bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, "2024-yilda turizm sohasi qo'shimcha 27,4 million yangi ish o'rni yaratib, dunyo bo'yicha jami taxminan 348 million ish o'rmini ta'minladi [19]. So'nggi yillarda turizm sohasini samarali boshqarish, turistlar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish, infratuzilmani rivojlantirish hamda turistlar oqimini sig'imlilik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda muvofiqlashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar turizmni huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida boshqarish orqali tizimli ravishda mustahkamlanmoqda. Xususan, turistik hududlarda ekologik va ijtimoiy yuklamalarni hisobga olgan holda tashrifchilar sonini me'ylash, resurslardan samarali foydalanish hamda turizmni uzoq muddatli rivojlantirish maqsadida sig'imlilik modellarini qo'llash turizm boshqaruvining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib, bu borada bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, mamlakatimizda turizm sohasini tizimli boshqarish va barqaror rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz tashabbuslari bilan bosqichma-bosqich kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sohaga oid qator qarorlar, farmonlar va davlat dasturlari qabul qilinib, turizmni huquqiy-me'yoriy jihatdan tartibga solish va turizm sohasining tezkor rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" [1], 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [2] Farmonlari, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" [3], 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorları [4] respublikaning turizm salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish va qo'shimcha sharoitlar yaratish imkonini bermoqda.

## Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Jahon hamda mahalliy tadqiqotlarda olimlar tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Bu borada, xorijlik yetakchi olimlardan D.B.Veaver [6], C.M.Hall [7], Jafar Jafari [8], Pauline Sheldon [9], Ye.M.Maksarova [10] singari olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida turizm sohasini rivojlantirishning nazariy jihatlari, tamoyillari, hamda turizm infratuzilmasini boshqarish va takomillashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga hissa qo'shgan olimlardan A.A.Eshtayev o'zining "Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi" nomli dissertatsiyasida mamlakatimizda turizm sohasini samarali boshqarish uchun hududiy turizm klasterlarini shakllantirish, ichki va tashqi bozorlarga mo'ljallangan marketing strategiyalarini joriy etish, shuningdek, davlat-xususiy sherikchiligi asosida innovatsion mexanizmlarni keng tatbiq etish zarurligini asoslaydi [11]. Olimning ta'kidlashicha, global raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda turizm xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash va marketing-kommunikatsiya vositalaridan ogilona foydalanish orqali milliy turizm industriyasining salohiyatini to'liq ochish mumkin.

B.Sh. Safarovning ta'kidlashicha, O'zbekistonda turizm va mehmondo'stlik sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun uni strategik boshqaruv asosida tashkil etish zarur. Olim turizm xizmatlari bozorini zamonaviy talablar asosida shakllantirish, hududiy salohiyatni to'liq ishga solish, xizmatlar ko'lamini diversifikatsiya qilish orqali sohani samarali boshqarish va raqobatbardoshligini oshirish mumkinligini ilgari suradi [12]. Shu nuqtai nazaridan, olimning

fikricha, barqaror turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar hamda inson kapitaliga yo‘naltirilgan strategik investitsiyalar muhim boshqaruv vositalaridan hisoblanadi.

Yuqoridagi mutaxassislarning fikrlariga ko‘ra, turizm sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining barcha sohalariga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, turizmni kompleks yondashuv asosida strategik boshqarish zamон talabi hisoblanadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston mavjud turistik salohiyatdan samarali foydalanish, barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan holda turizm siyosatini olib borish, hamda rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish orqali global turizm bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlashi lozim.

Bu borada hududiy resurslardan oqilona foydalanish, turizm infratuzilmasini zamonaviylashtirish, xizmatlar sifati va turlarini diversifikatsiya qilish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosidagi barqaror boshqaruv modelini shakllantirish muhim omil sanaladi. Ayniqsa, turistik hududlarda sig‘imlilik darajasini aniqlash va uni me’yorlashtirish orqali ekologik va ijtimoiy yuklamalarni muvozanatlashtirish, mahalliy aholi turmush darajasini oshirish hamda hududlarda ijtimoiy barqarorlikka erishishda turizmning ijobiy ta’siri ortib bormoqda. Shu ma’noda, turizm sohasi nafaqat iqtisodiy resurs, balki ijtimoiy barqarorlik va hududiy rivojlanishning muhim omili sifatida qaralishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo‘llanildi: tizimli tahlil, taqqoslash, solishtirma tahlil, guruhlashtirish, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy yondashuv, statistik tahlil hamda ekspert baholash kabi usullar foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar.**

Hozirgi vaqtida o‘rta darajali iqtisodiyotga ega davatlarda o‘sib borayotgan o‘rta tabaqa hayotning asosiy maqsadi sifatida rohat va zavq olishni oldinga surgan g‘oya - gedonizmga moyillik namoyon qilmoqda. Turizm sohasida gedonizm asosan dam olish va zavq izlash, turli moddiy yoki emotsiyonal qoniqishlarga erishishga intilishni anglatadi. Ushbu davatlarda gedonistik tamoyillarning o‘sib borishi natijasida ichki turizm yirik yoki allaqachon muhim turizm bozoriga aylanishi mumkin [20].

Biroq, sayyoramiz bunday o‘sish sur’atlarini barqaror saqlab qolishga qodirmi? Zamonaviy turizm amaliyoti kelajak avlodlar uchun daromad manbaini ta’milagan holda, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy rivojlanish modeli sifatida mos keladimi? Birlashgan Millatlar Tashkilotining Turizm bo‘yicha ixtisoslashtirilgan agentligi (UN Tourism) tomonidan ilgari surilgan kelajakka oid prognozlar muqarrarmi?

Tadqiqotda turizm industriyasi va uning amaliyotlari natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy, iqtisodiy hamda ekologik muammolar keng qamrovda tahlil etiladi. Kelajak avlod uchun daromad manbaini ta’milagan holda, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan hamda iqtisodiy rivojlanish modeli sifatida barqaror turizmni rivojlanish uchun turli uslubiy yondashuvlar mavjud. Ushbu yondashuvlar 1-jadvalda batafsil ko‘rib chiqilgan. Ushbu yondashuvlar barqaror turizmni amalga oshirishda turli jihatlarni inobatga olib, ularni muvofiqlashtirish va muvozanatli rivojlanishga yordam beradi. Barqaror turizm va iqtisodiy rivojlanish jarayonlari o‘zaro chambarchas bog‘liq, shu sababli ularning modellari va usullari barqarorlikka erishishda muhim ahamiyatga ega.

1992-yildagi Rio-de-Janeyroda o‘tkazilgan Yer Sammitida yaratilgan modellar barqaror turizmni rivojlanish masalalariga katta e’tibor qaratdi. Bu modellar barqaror turmush tarzi tushunchasini asos qilib olgan holda turizmni rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi modellarni ishlab chiqishda qo‘llaniladi. Zamonaviy modellar, boshqa ko‘plab modellar kabi, rivojlanish muammolari va ularning oqibatlarini chuqr tushunish uchun asos yaratadi.

**1-jadval****Barqaror turizmni rivojlantirishdagi asosiy uslubiy yondashuvlar tasnifi<sup>1</sup>**

<b>Nº</b>	<b>Yondashuvlar</b>	<b>Barqaror turizmda yondashuv mazmuni</b>
1.	Ma'muriy yondashuv	Barqaror turizmda boshqaruv tizimining funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari qonunchilik va me'yoriy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Turizmdagi mas'uliyatli boshqaruv jarayonlarini ta'minlashga qaratilgan.
2.	Resursni qayta tiklash yondashuvi	Tabiiy va madaniy resurslarning barqaror foydalanishini ta'minlash maqsadida ularni doimiy tiklab borishga yo'naltirilgan. Bozor ehtiyojlarini resurslarni asrab-avaylagan holda qondirish uchun choralar ko'rildi.
3.	Dinamik yondashuv	Turizm obyektlari va manzillarini rivojlantirish jarayonida ularning dialektik rivojlanishi va muvozanatini saqlashga yo'naltirilgan. Bu yondashuv turizmning atrof-muhitga va jamoaga ta'sirini monitoring qilishni o'z ichiga oladi.
4.	Integratsion yondashuv	Barqaror turizm tizimida alohida bo'limlar va tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi, masalan, mehmonxonalar, transport va ekologik tashkilotlar hamkorligi.
5.	Miqdoriy yondashuv	Barqaror turizmni baholashda miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalanish, masalan, turistlar soni, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatkichlari, chiqindilarni qayta ishslash hajmi kabi statistik ma'lumotlarni qo'llash.
6.	Majmuaviy yondashuv	Turizmning texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini kompleks ravishda o'rganib, ularni muvozanatlashgan holda rivojlantirish. Barqaror turizmning umumiy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan yondashuv.
7.	Marketing yondashuvi	Barqaror turizmda xizmatlarni iste'molchi ehtiyojlariga moslashtirish bilan birga, ekologik mas'uliyatni ham nazarda tutadi. Turistlarning barqarorlikka yo'naltirilgan ehtiyojlarini qondirish uchun marketing strategiyalari qo'llaniladi.
8.	Me'yoriy yondashuv	Turizmda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy me'yorlarga rioxaliga qilishni ta'minlaydigan qoidalar va standartlar joriy qilinadi. Bu yondashuv barqarorlikka oid milliy va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlaydi.
9.	Xulq-atvor yondashuvi	Turizm sohasida ishlovchi xodimlarga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Bu yondashuv mahalliy jamoatchilik manfaatlarini himoya qilish va mas'uliyatli turizm faoliyatini tashkil etishni qo'llab-quvvatlaydi.
10.	Jarayonli yondashuv	Turizm jarayonlarini o'zaro bog'liq funksiyalar majmui sifatida ko'rib chiqadi, masalan, turizm xizmatlari zanjirini tashkil qilishda ekologik va ijtimoiy omillarni inobatga oladi.
11.	Tizimli yondashuv	Barqaror turizm tizimini bir-biriga bog'liq elementlar yig'indisi sifatida ko'rib chiqadi. Masalan, tabiiy resurslar, turistik obyektlar va mahalliy jamoatchilik o'rtasida muvozanatli aloqalarni ta'minlaydi.
12.	Vaziyatli yondashuv	Turizm boshqaruvida turli usullarni aniq vaziyat va sharoitlardan kelib chiqib qo'llashga qaratilgan. Bu yondashuvda turistik faoliyatni ekologik va ijtimoiy vaziyatlarga moslashtirish muhimdir.
13.	Funksional yondashuv	Turizmda barqarorlikka erishish uchun zarur vazifalar to'plamini, jumladan, ekologik mas'uliyat, jamoatchilik manfaatlari va turistik xizmatlarni o'zaro uyg'unlashtirishni ta'minlashga qaratilgan.
14.	Innovatsion yondashuv	Turizmda yangi texnologiyalardan foydalanish orqali barqarorlikni ta'minlash, masalan, "yashil" energiya manbalari, qayta ishlangan resurslar va raqamli xizmatlarni joriy qilish.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ular ijobjiy, chunki ular rivojlanish muammolarini hal qilishga qaratilgan yechimlar taklif qilishga harakat qiladi hamda bu kontekstda qashshoqligini kamaytirishga yo'naltirilgan. Shu boisdan, bu modellar rivojlanayotgan mamlakatlardagi yangi turizm shakllari uchun katta ahamiyatga ega. BMTning Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi (IFAD) ta'kidlaganidek, "barqaror turmush tarziga yondashuv – qashshoq aholi turmushini yaxshilashning samarali usulidir" [21].

Barqaror turizm sohasidagi muhim modellardan biri sifatida A.Metison va G.Uollning konseptual modeli alohida o'rinn tutadi. Ushbu model turizmning manzillarga (destinatsiyalarga) iqtisodiy, fizik va ijtimoiy ta'sirlarini qamrab oladi. Shuningdek, turizmning rivojlanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tushunishga yordam berib, barqarorlik tamoyillariga muvofiq yechimlar taklif etadi. A. Metison va G. Uoll tomonidan ishlab chiqilgan ushbu konseptual model ularning "Tourism: Economic, Physical and Social Impacts" (1982) kitobida keltirilgan bo'lib, u turizmning destinatsiyalarga ta'sirini tushuntiruvchi uchta asosiy jihatni o'z ichiga oladi [13].

1. Iqtisodiy ta'sirlar – turizmning mahalliy va milliy iqtisodiyotga ta'sirini qamrab oladi. Bu jumladan, valyuta oqimini oshirish, daromadlarni ko'paytirish va infratuzilmani rivojlantirish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Biroq, turizmga bog'liqlik va mavsumiylik kabi salbiy ta'sirlar ham ushbu ko'rsatkich doirasida muhim o'rinn tutadi, chunki turizm faoliyatini pasaygan taqdirda iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelishi mumkin.

2. Fizik ta'sirlar (ekologik ta'sirlar) – turizmning manzillaridagi tabiiy va sun'iy muhitga ko'rsatadigan ta'sirini ifodalaydi. Bu jarayon tabiiy resurslarning kamayishi, hududiy qurilish ishlari va ekologik muvozanatning buzilishi kabi holatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

3. Ijtimoiy-ma'naviy ta'sirlar – turizmning mahalliy aholi hayoti va madaniy muhitdagi o'zgarishlarga ta'sirini tavsiflaydi. Turizm mahalliy an'analarning yo'qolishiga, qadriyatlarning o'zgarishiga va ijtimoiy tangliklarning ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Biroq, u madaniy almashinuvni rag'batlantirishi, mahalliy madaniyatlarni tiklashi hamda mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilashi kabi ijobjiy natijalarga ham xizmat qilishi mumkin. Mazkur konseptual model turizmning mahalliy jamiyat va atrof-muhitga bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish imkonini beradi.

Keyingi model J.Spangenberg va A.Valentin tomonidan 1999-yilda taklif qilingan bo'lib, ular "Barqaror jamoalar uchun ko'rsatkichlar" asarida barqarorlik prizmasi modelini ilgari surdilar. Ushbu model barqaror rivojlanishning quyidagi to'rt asosiy yo'nalishini tahlil qiladi: 1. Ekologik barqarorlik, 2. Ijtimoiy barqarorlik, 3. Iqtisodiy barqarorlik; 4. Institutsional barqarorlik – (davlat va jamoatchilik tashkilotlari orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash mexanizmi).

Model mazkur elementlarning uyg'unlashuvi orqali barqaror jamoalarni shakllantirish va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlash uchun poydevor yaratadi. Qashshoqlik va barqarorlik muammolarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish mazkur modelning muhim jihatlaridan biri bo'lib, u ilmiy va amaliy tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda [14].

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, "barqaror", "alternativ" yoki "ekologik toza" turizmga talab ortib bormoqda va rivojlanayotgan davlatlarga sayohat safarlari soni ham oshmoqda. Diqqatga sazovor jihat shundaki, rivojlangan davlatlar aholisi orasida ijtimoiy va ekologik harakatlarga qiziqish bildirayotgan sayyoohlar ulushi oxirgi yillarda sezilarli darajada oshmoqda. Ekologik barqarorlikning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi, chunki u barqarorlik tushunchasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli, turizm faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish yoki undan butunlay qochish zarurati tobora dolzarb masalaga aylanmoqda.

Bu borada E.Maldonado va F.Montagnini hamkasblari bilan birgalikda barqaror turizmni ta'minlashda atrof-muhitga ta'sirni baholashning muhim usuli sifatida "qabul qilish chegarasi" (carrying capacity) konsepsiyasidan foydalanishni tavsija etadilar. Ushbu yondashuv turizmga mo'ljallangan hududlarning o'tkazuvchanlik salohiyatini baholash orqali tashriflar darajasini tahlil qilish va samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi [15].

Barqaror turizmni ta'minlashda ijtimoiy omillarning ta'sirini kuzatish va boshqarish uchun qo'llaniladigan usullardan biri "Maqbul o'zgarishlar chegarasi" (LAC – Limits of Acceptable Change) hisoblanadi. LAC modeli orqali belgilangan chegaralarga rioya qilgan holda turizm faoliyatini barqaror rivojlantirish mumkin bo'ladi. "Maqbul o'zgarishlar chegarasi" – turizm va

inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini boshqarish uchun muhim metod hisoblanadi. Mazkur model jamiyat va atrof-muhitga qabul qilinadigan ta'sir darajasini belgilashga yo'naltirilgan bo'lib, turizmning salbiy oqibatlarini kamaytirishga va turizm manzillarini barqaror boshqarishga xizmat qiladi [16].

LAC modelining asosiy bosqichlari quyidagilar:

1. Qabul qilinadigan o'zgarish chegarasini belgilash. Atrof-muhit va ijtimoiy jihatlarda qabul qilinadigan o'zgarishlar uchun chegaralar belgilanadi.

2. Indikatorlarni tanlash. Atrof-muhit va jamiyatga ta'sir qiluvchi asosiy indikatorlarni aniqlash va ularni kuzatib borish tizimini ishlab chiqish.

3. Monitoring va baholash. Bu bosqichda chegaralarning qabul qilinadigan yuklamaga qanchalik rioya qilinayotganligi o'r ganiladi.

4. Harakat rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish. Agar indikatorlar belgilangan chegaradan oshib ketsa, oldini olish choralar ko'riladi va yangi boshqaruv strategiyalari ishlab chiqiladi.

Maqbul o'zgarishlar chegarasini hisoblash quyidagi formulalar orqali amalga oshiriladi.

1. Resursning yuklama darajasi.

$$LAC = \frac{L}{K} \times 100 \quad (1)$$

*bu yerda: LAC – maqbul o'zgarish chegarasi – ushbu natija turizm faoliyatining resurslarga ta'sirini ko'rsatadi va belgilangan chegaralardan oshmasligi uchun muhim mezon hisoblanadi; L – hozirgi yuklama – bu resurslarga tushayotgan og'irlilik (masalan, tashrif buyuruvchilar soni yoki resurslarning iste'mol darajasi); K – resurslarning sig'imi – resurslarning maksimal darajasi, ya'ni resurslar qabul qila oladigan maksimal yuklama.*

2. Ekologik yuklama darajasi.

$$EC = \frac{D}{R} \times T \quad (2)$$

*bu yerda: EC – ekologik yuklama darajasi – bu tabiiy resurslardan foydalanish va inson faoliyatining atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini baholash uchun qo'llaniladigan ko'rsatkich. Bu daraja, tabiiy resurslarning qayta tiklanish quvvatiga nisbatan, inson faoliyati tufayli yuzaga kelgan talabni ifodalaydi; D – tabiiy resurslarning yillik iste'mol darajasi – bu resurslarning qancha qismi bir yil davomida ishlatilishini ko'rsatadi; R – tabiiy resurslarning yillik yangilanish darajasi – bu resurslar yil davomida qayta tiklanish darajasidir; T – tashriflar soni – bu yil davomida obyekt yoki hududga kelgan tashrifchilar sonini anglatadi.*

Ushbu formuladan foydalanish orqali turistik faoliyatning resurslarga bo'lgan ta'sirini aniqroq baholash va turizmning barqaror darajasini belgilash mumkin.

3. Ijtimoiy yuklama darajasi.

$$SC = P - \left( \frac{E}{N} \right), \quad (2.3)$$

*bu yerda: P – mahalliy jamoatchilikning qabul qilish qobiliyati; N – tashrif buyuruvchilar soni; E – turizm infratuzilmasining umumiy xizmat ko'rsatish quvvati.*

Ushbu formula yordamida turizmning mahalliy jamoatchilikka bo'lgan ijtimoiy ta'siri o'lchanib, barqaror turizm uchun muvozanatni saqlash choralarini ko'rish mumkin bo'ladi.

Fikrimizcha, mahalliy ijtimoiy barqarorlik, milliy darajadagi turistik jamoalarning qo'shimcha resurslar, masalan, sayyoohlar oqimining qisqa yoki uzoq muddatda oshishi kabi o'zgarishlarni qabul qila olish qobiliyatini bildiradi. Bunday o'zgarishlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy nomutanosibliklarning oldini olish yoki munosabatlar va funksiyalarni moslashtirish orqali paydo bo'lgan nomutanosibliklarni yumshatish yoki bartaraf etish imkoniyati mavjuddir.

Turistik so'qmoqlar ham ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. (Turistik so'qmoqlar – bu tabiiy, madaniy va tarixiy hududlar bo'y lab maxsus rejalshtirilgan yo'nalishlar bo'lib, sayyoohlarga xavfsiz va qulay harakatlanish imkonini beradi). Ushbu yo'nalishlar turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi hamda barqaror turizm tamoyillariga bevosita daxldor hisoblanadi. Ular sayyoohlarning harakatini tartibga solish orqali mahalliy jamoalarga tushadigan yuklamani muvozanatlashtirishga yordam beradi. So'qmoqlarning to'g'ri rejalshtirilishi, tabiiy va madaniy resurslarning ortiqcha ekspluatatsiya qilinishining oldini olib, mahalliy aholi va

sayyoohlар о‘rtasidagi ijtimoiy muvozanatni saqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, turistik so‘qmoqlar mahalliy jamoalarni turizm faoliyatiga jalb etish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy integratsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash va turizmning barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish imkonini beradi.

Shu sababli, barqaror turizmning ruxsat etilgan yuklamasini hisoblash, atrof-muhitga ta’sirni baholash va ijtimoiy ruxsat etilgan sig‘imni aniqlash uchun “Turistik so‘qmoqlar”ni qabul qiladigan o‘zgarishlar chegarasini hisoblash modelini ishlab chiqdik. Ushbu model turizmning atrof-muhit va infratuzilmaga ta’sirini baholashda juda muhim bo‘lib, ijtimoiy yoki iqtisodiy cheklowlarni ilmiy asoslash uchun ham qo‘llanishi mumkin (1-rasm).

Ishlab chiqilgan ushbu modelni amaliyotga joriy etish uchun bizning tadqiqotimizga eng mos obyekt sifatida Samarqand viloyati, Samarqand shahri yaqinidagi Oqsoy qishlog‘ida joylashgan Hazrati Dovud g‘ori tanlab olindi. Mazkur g‘or Samarqand shahridan 40 kilometr masofada joylashgan bo‘lib, u muqaddas qadamjo, muhim arxeologik yodgorlik va tabiat mo‘jizasi sifatida tan olingan. Hazrati Dovud uchta din vakillari tomonidan hurmat bilan e’tirof etilgan shaxs bo‘lib, musulmonlar uni Hazrat Dovud, pravoslav va yahudiylar esa David deb atashadi. Uning bashorat qilish va shifo berish qobiliyatları tufayli hayoti sir va afsonalar bilan o‘ralgan. Hazrati Dovud 33 yoshida Isroil va Yahudiya Birlashgan Qirolligining hukmdori sifatida taxtga o‘tirib, qirq yil davomida hukmronlik qilgan. Uning ismi bilan bog‘liq bo‘lgan g‘or muqaddas qadamjo sifatida ziyoratchilarini jalb qiladi. Har kuni o‘nlab insonlar bu muqaddas joyga kelib, ibodat qilishadi.

### “IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MAEROS XALQARO UNVIERSITETI

#### “SMART TOURISM DATA SYSTEM” laboratoriysi

##### “Turistik so‘qmoqlar”ni qabul qiladigan o‘zgarishlar chegarasini hisoblash modeli

###### Fizik jihatdan ruxsat etilgan yuklama (FS)

$FS = \frac{yo‘l\ uzunligi \times metrga\ tushadigan\ tashrifchilar\ soni \times kunlik\ davomiylik}{(soat/kun)}$

###### Haqiqiy jihatdan ruxsat etilgan yuklama (HS)

$$HS = FS \times \frac{(100 - FY)}{100} \times \frac{(100 - FE)}{100} \times \frac{(100 - FQ)}{100}$$

###### Samarali jihatdan ruxsat etilgan yuklama (SS)

$$SS = HS \times (100 - FM) / 100$$

Fizik yuklama hech qanday chegaralovchi omillarsiz obyekt qabul qila oladigan maksimal tashrifchilar sonini ko‘rsatadi.

Haqiqiy yuklama obyektning imkoniyatlarini aniq ko‘rsatib, uning ekologik va infratuzilmaviy chegaralarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Samarali yuklama esa chegaralovchi omillarni inobatga olgan holda obyektning real quvvatini aniqlaydi.

Bu model obyektning hozirgi va ideal quvvati o‘rtasidagi farqni aniqlab, destinatsiya resurslariga tushadigan yuklamani baholash hamda obyekt sig‘imini aniqlash imkoniyatini yaratadi

##### 1-rasm. “Turistik so‘qmoqlar”ni qabul qiladigan o‘zgarishlar chegarasini hisoblash modeli<sup>1</sup>

Hazrati Dovud g‘origa yetib borish uchun ziyoratchilar 1303 pog‘onali zinani yengib, tog‘ning eng yuqori cho‘qqisiga chiqishlari kerak. Cho‘qqida qadimiy masjid joylashgan bo‘lib,

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

undan 200 pog'ona pastroqda Hazrat Dovud g'orini ko'rish mumkin. Har bir kishi ham 1500 dan ortiq zinalarni yengib o'tishga qodir emas. Shuning uchun ham maqbara yonida "navbatchi" tuya va otlar bor. Zinalarda savdo rastalari mavjud bo'lib, u yerda esdalik sovg'alari, suv, hushbo'y atirlar, oziq-ovqat, dorivor o'tlar va boshqa ko'p buyumlarni sotib olishingiz mumkin.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra va qabul qilinuvchanlik chegarasini aniqlashdagi hisob-kitoblar asosida Hazrati Dovud g'ori va uning atrofidagi hududda quyidagi muammolar aniqlangan. G'orni va unga tutash muqaddas joylarni muhofaza qilish uchun davlat tomonidan yetarli moliyalashtirishning yo'qligi, sayyoohlar sonining ortib borishi, ziyyaratgoh atrofidagi bufer zonada daraxtlarni kesish, infratuzilmaning sayyoohlar oqimi sababli yomonlashuvi va ushbu hudud uchun aniq boshqaruv rejasining mavjud emasligi aniqlandi.

Ushbu muammolarni bartaraf etishi ziyyoratchilar uchun sog'lom ekologik muhitda ziyyaratni ta'minlash hamda muqaddas joyning uzoq vaqt saqlanishini kafolatlashda muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli, biz ushbu g'orga olib boruvchi sig'imlilik holatini va unga tushadigan yuklama darajasini chuqur tahlil qildik.

**Fizik jihatdan ruxsat etilgan yuklama (FS)** – bu bir kishining erkin harakatlanishi uchun zarur bo'lgan joyga asoslangan holda hisoblanadi. Har bir odamga 1 kvadrat metr maydon ajratilgan deb hisoblanadi. Yo'lning o'rtacha kengligi 1 metrni tashkil etadi, shuning uchun har bir tashrifchi yo'lning 1 chiziqli metridagi maydonni egallaydi. Yo'llardan biri uchun quyidagi farazlar qilingan:

- tashrifchilar yo'l bo'ylab gid boshchiligidagi 25 kishidan oshmaydigan guruhlarda harakatlanadilar;
- guruhlar orasidagi masofa kamida 100 metr bo'lishi kerak;
- yo'lning uzunligi 1,250 metrni tashkil etadi;
- yo'lni bosib o'tish uchun o'rtacha 1,5 soat talab etiladi;
- g'orga tashriflar uchun kuniga 8 soat va yiliga 300 kun ochiq bo'ladi.

Fizik jihatdan ruxsat etilgan yuklama (FS) quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$FS = YU \times TS \times KD, \quad (4)$$

bu yerda:  $YU$  – yo'l uzunligi;  $TS$  – metrga tushadigan tashriflar soni;  $KD$  – kunlik davomiylik (soat/kun).

*Hisoblash jarayoni:*

$$\begin{aligned} &= 1,250 \times 1 \times 8 \\ &= 10,000 \text{ tashrif kuniga} \\ &= 10,000 \times 300 \\ &= 3\,000\,000 \text{ tashrif yiliga} \end{aligned}$$

Bu hisoblar shuni anglatadiki, har kuni 10,0 ming nafar tashrif buyuruvchi qabul qilinishi mumkin va yil davomida 3 mln ta tashrif sodir bo'ladi. Bu fizik yuklama hech qanday chegaralovchi omillarsiz obyekt qabul qila oladigan maksimal tashrifchilar sonini ko'rsatadi.

**Haqiqiy jihatdan ruxsat etilgan yuklama (HS)** – bu fizik yuklamani turli tabiiy va infratuzilmaviy omillarni hisobga olgan holda aniqlanadi. Bu yerda uchta asosiy omil:

*Yog'ingarchilik* ( $FY = 1,39\%$ ). Bu omil hududning foydalanish imkoniyatini qanchalik kamaytirishini ko'rsatadi. Masalan, yog'ingarchilik yo'llarni yomonlashtirishi yoki hududda harakatlanishi qiyinlashtirishi mumkin.

*Eroziyaga moyillik* ( $FE = 38,28\%$ ). Hududdagi eroziya xavfi hisobga olinadi. Eroziya tuproq va tabiiy resurslarni yemirib, hududning foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

*Qiya darajasi* ( $FQ = 38,28\%$ ). Hududning qiyalik darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Qiya yoki tik joylar tashrif buyuruvchilar uchun xavfli bo'lishi mumkin va hududning sig'imlilik imkoniyatlarini cheklaydi.

Har bir omil uchun tuzatish koeffitsiyentlari alohida hisoblanadi va ular foizlarda ifodalanadi. Bu koeffitsiyentlar ilmiy tadqiqotlar va so'rovnomalar orqali olingan ma'lumotlar asosida aniqlandi (So'rovnama savollari 6-ilovada keltirilgan). Hisob-kitoblar ushbu omillarni inobatga olib, hududning haqiqiy sig'imligini aniq ko'rsatishga yordam beradi.

Haqiqiy jihatdan ruxsat etilgan yuklama quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$HS = FS \times \frac{100 - FY}{100} \times \frac{100 - FE}{100} \times \frac{100 - FQ}{100}, \quad (5)$$

*Hisoblash jarayoni:*

1-qadam. Yog'ingarchilik kunlarni ta'sirini hisoblash:

$$(100 - FY)/100 = (100 - 1,39)/100 = 0,9861$$

2-qadam. Eroziyaga moyillik ta'sirini hisoblash:

$$(100 - FE)/100 = (100 - 38,28)/100 = 0,6172$$

3-qadam: Qiya darajasi (tropa tikligi) ta'sirini hisoblash:

$$(100 - FQ)/100 = (100 - 38,28)/100 = 0,6172$$

4-qadam: Haqiqiy jihatdan ruxsat etilgan sig'imlilikni hisoblash:

$$HS = 10,000 \times 0,9861 \times 0,6172 \times 0,6172 = 3,756$$

$$= 3,756 \text{ kunlik tashrif}$$

$$= 3,756 \times 300$$

$$= 1 126 922 \text{ yillik tashrif}$$

Bu hisob-kitoblar shundan dalolat beradiki, obyektning haqiqiy jihatdan ruxsat etilgan yuklamasi (HS) turli tabiiy va infratuzilmaviy omillar – yog'ingarchilik, eroziya va qiyalik darajasini hisobga olgan holda sezilarli darajada kamayadi. Natijada, har kuni taxminan 3,756 nafar tashrifchi qabul qilinishi mumkin, va yil davomida 1,126 922 nafar tashrifchi kelishi mumkin. Bu ko'rsatkichlar obyektning real imkoniyatlarini aniq ko'rsatib, uning ekologik va infratuzilmaviy chegaralarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Samarali ruxsat etilgan yuklama (SS) – bu obyektning hozirgi va ideal boshqariladigan sig'im imkoniyatlarini solishtirish orqali aniqlanadigan ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkich, hozirda mavjud bo'lgan resurslar, xususan, xodimlar soni bilan ideal sharoitda zarur bo'lgan resurslar o'rtaidagi farqni hisobga olib, obyektning qabul qilish imkoniyatlarini baholaydi.

Hozirgi yuklama (F) – bu obyektning hozirgi vaqtida qancha xodimlar bilan ishlayotganini ifodalaydi. Masalan, Hazrati Dovuddan g'orgacha bo'lgan yo'l bo'yicha, hozirgi paytda 200 nafar xodim mavjud bo'lib, ular sayyoohlar va tashrif buyuruvchilar bilan ishlamoqda.

Ideal yuklama (I) – bu obyektning ideal sharoitlarda qancha xodim bilan ishlashi kerakligini ifodalaydi. Ideal sharoitlar barcha kerakli funksiyalarni to'liq bajarish uchun yetarli miqdordagi xodimlarni nazarda tutadi. Ushbu holatda, 290 kishi kerak bo'ladi.

Quyida keltirilgan formulalar hozirgi yuklama va ideal boshqariladigan yuklama (FM) o'rtaidagi farqlardan kelib chiqib, samarali ruxsat etilgan yuklamani (SS) hisoblashni ko'rsatadi.

$$FM = (I - F)/I \times 100, \quad (6)$$

*Hisoblash jarayoni:*

$$= (290 - 200)/290 \times 100 = 90/290 \times 100 \approx 31,03\%$$

$$= 100 - 31,03 = 68,97$$

Bu hisob-kitob hozirgi yuklama va ideal yuklamadan qanchalik farq qilishini foizda hisoblab beradi. Bunda farq 31,03% ni tashkil qiladi, ya'ni obyekt o'z ideal sig'imidan 31,03% past darajada, 68,97% ishlamoqda.

$$SS = HS \times (100 - FM)/100, \quad (7)$$

Haqiqiy ruxsat etilgan yuklama (HS) – obyekt ko'tara oladigan asosiy yuklamani anglatadi (bu holda u 3,756 ga teng).

*Hisoblash jarayoni:*

$$= 3,756 \times (100 - 31,03)/100 = 3,756 \times 0,68$$

$$= 2554,08 \text{ kunlik tashrif}$$

$$= 2554,08 \times 300$$

$$= 766,307 \text{ yillik tashriflar}$$

**Samarali ruxsat etilgan yuklama (SS)** ning kamayishi obyektning hozirgi va ideal boshqaruv imkoniyatlari, shuningdek, tabiiy va infratuzilmaviy cheklavlarning ta'siri natijasida yuz beradi. Hozirgi xodimlar soni (F) va ideal holatda talab qilinadigan xodimlar soni (I) o'rtaida sezilarli farq mavjud. Masalan, ideal holatda 290 kishi talab qilinadi, lekin hozirda faqat 200 kishi ishlamoqda, bu esa obyektning ishslash samaradorligini 31,03% ga kamaytiradi. Bu kuniga qabul

qilinadigan tashrifchilar sonini 3,756 nafardan 2,554 nafarga tushiradi. Yillik hisobga ko‘ra, obyekt faqat 766,307 nafar tashrifchini qabul qila oladi.

Hazrati Dovud ziyoratgohida hozirgi kunda tashrif buyuruvchilar soni keskin oshib, bir kunda kamida 10 ming kishi bu maskanga kelayotgani ma’lum qilindi. Shu bilan birga, ziyoratchilarning tepalikka chiqish va tushish jarayonida turli noqulayliklarga duch kelayotgani kuzatilmogda. Jumladan, yiqilib jarohat olish, yurak kasalliklari yoki qon bosimining oshishi kabi holatlar tez-tez sodir bo‘lmoqda. Shuningdek, tez yordam xizmatlaridan foydalanish imkoniyatining cheklangani va bemorlarni shifoxonaga yetkazishdagi qiyinchiliklar ham ziyoratchilar tomonidan e’tiroz sifatida bildirilmoqda<sup>1</sup>.

Mazkur muammolarni samarali hal qilish uchun “Turistik soqmoqlar” modeli taklif etilmoqda. Ushbu maxsus ishlab chiqilgan model asosida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Hazrati Dovud ziyoratgohi hozirda juda yuqori sig‘imlik darajasiga ega bo‘lib, bu esa ekologik va ijtimoiy muammolarning kuchayishiga olib kelmoqda. Bizning hisob-kitoblarimizga ko‘ra, ushbu model orqali ziyoratgohga yetkazilayotgan zararlarni kamaytirish, aholi va sayyoohlarni duch kelayotgan ijtimoiy hamda ekologik muammolarning oldini olish mumkin.

### **Xulosa va takliflar.**

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, turizm sohasida barqaror rivojlanishni ta’minalash zamonaviy ilmiy yondashuvlar hamda strategik boshqaruv mexanizmlarini qo‘llashni talab etadi. Turizmnинг ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy ta’sirlarini muvozanatli boshqarish barqaror turizm modelini shakllantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, sig‘imlilik darajasini aniq hisoblash va “Turistik so‘qmoqlar” modelini amaliyatga joriy etish orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash hamda infratuzilmani samarali boshqarish imkoniyati yaratiladi.

Hazrati Dovud ziyoratgohi misolida o‘tkazilgan amaliy tahlillar, obyektning fizik, haqiqiy va samarali yuklama darajalari o‘rtasidagi tafovutni aniqlashga xizmat qilib, mavjud imkoniyatlar va cheklovlarini kompleks baholash zarurligini ko‘rsatdi. Ushbu model orqali tashrif buyuruvchilar sonini optimallashtirish, xavfsizlikni oshirish, ekologik zararlarni minimallashtirish va mahalliy jamoalar manfaatlarini himoya qilish imkoniyati yaratiladi.

Barqaror turizmni ta’minalash uchun madaniy barqarorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va iqtisodiy muvozanatni ta’minalash zarur. Bu borada zamonaviy indikatorlar va monitoring tizimlari asosida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash dolzarb masala sifatida ko‘rilmogda. Shuningdek, ekologik va ijtimoiy yuklamani aniq tahvil qilish, infratuzilmaviy ehtiyojlarni prognozlash va ilg‘or boshqaruv yondashuvlarini qo‘llash orqali barqaror turizm konsepsiyasini amaliyatga joriy etish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

<sup>1</sup> <https://zamin.uz/uz/jamiyat/22293-ziyoratgohdan-tijoratgohga-aylangan-hazrati-dovud.html>

6. Weaver D.B., Tourisation Theory and the pandiscipline of tourism // Journal of Travel Research. 2022. T. 62. № 1. C. 259–265.
7. Hall C.M., Gossling S., Scott D. The Routledge Handbook of Tourism and Sustainability. Routledge, 2015.
8. Jafari J., Ritchie J. R. B. Toward a framework for tourism education // Annals of Tourism Research. 1981. T. 8. № 1. C. 13–34,
9. Sheldon P.J. Conference Report: Sustainability and Mass Destinations // Annals of Tourism Research. 2005. Vol. 32, No. 3. Pp. 811-813. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.annals.2004.10.007>;
10. Максарова Е.М. Основные направления реализации принципов устойчивого развития в туризме // Экономика и право, 2008, с.346. <https://e.twirpx.link/file/482976/>
11. Eshtayev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. // T: Fan, 2011. T. 1. № 1. 280 b.
12. Safarov B., Mansurova N., Hasanov H., Xayrullayev A., Sanayeva R., Yu J. Analysis of Factors Influencing the Development of Health and Wellness Tourism in the Context of Sustainable Urban and Regional Development in Uzbekistan // Computational Science and Its Applications: Proc. of the Int. Conf. – Cham: Springer Nature - Switzerland, 2025. – P. 405–414.
13. Mathieson, A., Wall, G. Tourism: Economic, Physical and Social Impacts // London: Longman, 1982. – 208 p.
14. Valentin A., Spangenberg J.H. A guide to community sustainability indicators // Environmental Impact Assessment Review. – 2000. – Vol. 20, no. 3. – Pp. 381–392.
15. Maldonado, E., Montagnini, F. Carrying Capacity of La Tigra National Park, Honduras: Can the Park Be Self-Sustainable? // Journal of Sustainable Forestry. – 2004. – Vol. 19, №4. – P. 29–48. – DOI: 10.1300/J091v19n04\_03.
16. Stankey, G. H., Cole, D. N., Lucas, R. C., Petersen, M. E., Frissell, S. S. The Limits of Acceptable Change (LAC) System for Wilderness Planning // USDA Forest Service General Technical Report INT-176. 1985.
17. Cooke, B. The social psychological limits of participation // Participation: The New Tyranny. London: Zed Books, 2001.236p.

### **Foydalanilgan Internet saytlari.**

18. <https://wttc.org>
19. UN-Tourism. Jahon turizm barometri. 2024, from <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data>
20. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
21. [www.ifad.org/sla](http://www.ifad.org/sla) International Fund for Agricultural Development The Sustainable Livelihoods Approach, IFAD, (2014)
22. <https://zamin.uz/uz/jamiyat/22293-ziyoratgohdan-tijoratgohga-aylangan-hazrati-dovud.html>